

Pedagogika, psixologiya va o'qitish metodikasi



«Professional ta'lim» kafedrası mudiri dotsenti (PhD)

Mukumova Dilrabo Inatovna

Tel.: +99871-237-45-30

Email: d.mukumova@tiame.uz

"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universitetining "Pedagogika, psixologiya va o'qitish metodikasi" kafedrası 1982 yilda tashkil topgan bo'lib, p.f.n., (1982 -2002) prof. K.D. Mirsaidov p.f.n., (2003-2010) dotsent Z.Ismailova p.f.n., dotsent. R.A.Asomova (2011-2013), p.f.n., (2013-2016) dotsent D.O.Ximmataliev va p.f.n., (2016-2018) dotsent M.X.Baybaeva kafedra mudiri lavozimida ishlaganlar. 2020 yil 25 iyul kundan "Professional ta'lim va jismoniy madaniyat" kafedrası deb nomlana boshlandi, hamda p.f.d., prof. Z.K.Ismailova kafedra mudiri lavozimida ishlab kelgan. Kafedraning salohiyatli pedagoglari rahbarligida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan va natijada shu kunga qadar 6 nafar falsafa doktori (PhD), 2 nafar fan doktori (DSc) himoya qilgan. "Professional ta'lim va jismoniy madaniyat" kafedrası qoshida 2018 yildan buyon 13.00.05-"Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi" ixtisosligi bo'yicha tayanch doktorantura faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Bugungi kunda kafedrada bir qancha pedagog olimlar faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Ular: p.f.d., professorlar Z.K.Ismailova, (DSc) R.K.Choriyev, dotsentlar:, (PhD) D.I.Muqumova, (PhD) R.X.Fayzullaev, (PhD) D.A.Mustafoeva, (PhD) F.Sadikova (PhD) katta o'qtuvchi A.Jumanovlar samarali mehnat qilishmoqda.

Kafedrada olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari natijasida 400 ga yaqin ilmiy ishlar, jumladan 15 ta monografiya, 9 ta darslik, 19 ga yaqin o'quv qo'llanma, o'quv-uslubiy ishlanmalar chop etirilgan. Talabalar ilmiy jamiyati va ta'lim sifatini oshirish va talabalarning erishgan yutuqlari, hamda hamkorlik natijalari va olib borilgan samarali faoliyat natijasida hozirgacha kafedra professor-o'qituvchilari rahbarligida 1 nafar prezident stipendiyasi sohibi, 2 nafar "Pedagogika", "Kasbiy ta'lim" fanlaridan olimpiada g'oliblari va bir qancha nomdor stipendiya sohibligiga erishildi. Kafedrada hozirgi kunda respublikamizdagi faoliyat ko'rsatayotgan turdosh oliy o'quv yurtlari shuningdek qishloq va suv xo'jaligi soha yo'nalishlaridagi professional ta'lim yo'nalishlari bilan innovatsion hamkorlik shartnomalari tuzilgan bo'lib, "Ustoz - shogird" tizimi asosida, "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti huzuridagi Paxtaobod qishloq xo'jaligi texnikumi, Qumqo'rg'on agrosanoat texnikumlari bilan hamkorlikda ish olib bormoqda. Universitetimiz rektorining 2023-yil 5-yanvardagi 1 a/f-sonli buyrug'iga binoan "Professional ta'lim va jismoniy madaniyat" kafedrası nomi "Professional ta'lim" kafedrası nomi yuritila boshladi. 2023-yil 1-iyundan D.I. Muqumova kafedra mudiri lavozimida ishlab kelmoqda.

Gidromelioratsiya fakulteti O'qitiladigan fanlar Ilmiy ishlar Tadqiqotchilar Hamkorlar Kafedra
xodimlari To'garaklar Dars jadvali Aloqalar